

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*

PEDAGOGIK INNOVATSIYALARNI TA'LIM TIZIMIGA JORIY ETISH
MASALALARI.

ВНЕДРЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИННОВАЦИЙ В СИСТЕМУ
ОБРАЗОВАНИЯ.

ISSUES OF INTRODUCTION OF PEDAGOGICAL INNOVATIONS TO
THE EDUCATION SYSTEM.

Chankayeva Dildora Haqqulovna

Jizzax viloyati, Zafarobod tumani 3-DMTT

Annotatsiya: Ta'lim jarayonida pedagogik innovatsiyalarni qo'llash, pedagogik yangilikning xususiyatlari, innovatsion pedagogik tushunchalarning ta'limga joriy etilishi kabi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik innovatsiya, pedagogik faoliyat, innovatsion faoliyat, boshqaruv, taraqqiyot.

Аннотация: Применение педагогических инноваций в образовании, характеристика педагогических инноваций, внедрение инновационных педагогических концепций в образование.

Ключевые слова: педагогическая инновация, педагогическая деятельность, инновационная деятельность, управление, развитие.

Annotation: The application of pedagogical innovations in education, the characteristics of pedagogical innovation, the introduction of innovative pedagogical concepts in education.

Keywords: pedagogical innovation, pedagogical activity, innovative activity, management, development.

Pedagogik innovatsiyalar- ta'lim va tarbiya mazmuni va texnologiyasidagi o'zgarishlar, ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan harakatlar majmuidir. Innovatsion jarayon innovatsiyalarni yaratish, rivojlantirish, ulardan foydalanish va tarqatish bo'yicha kompleks faoliyatni anglatadi. Yurtimizda quyidagi yo'nalishlarda innovatsion jarayonlar joriy etilmoqda: yangi ta'lim mazmunini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, ta'lim muassasalarining yangi turlarini yaratish. Taraqqiyotni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy yangiliklar inson bilimlarining barcha sohalarini qamrab oladi. Ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va boshqaruv, texnik va texnologik o'sish davrida yuzaga kelgan ehtiyojlarni qondirish usullaridan biri sifatida pedagogik yangiliklar yuzaga keldi.

Pedagogik yangilik - bu pedagogika sohasidagi yangilik, uning tarkibiy qismlarini va umuman ta'lim tizimining xususiyatlarini yaxshilaydigan barqaror elementlarni (innovatsiyalarni) o'quv muhitiga kiritadigan maqsadli progressiv o'zgarishdir. O'qituvchi faoliyatini o'zgartirmay turib, uning mas'uliyati va faolligini oshirmasdan turib ta'limda bir qadam oldinga siljib bo'lmaydi. Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo'nalish – pedagogik innovatsiya va ta'lim jarayonini yangilash g'oyalarining paydo bo'lishi natijasida o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida ham yangi yo'nalish “o'qituvchining innovatsion faoliyati” tushunchasi paydo bo'ldi. Innovatsion faoliyat – pedagogning o'z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondoshuvni nazarda tutadi. Ta'limdagi innovatsiyalar va innovatsion pedagogik faoliyat haqida barqaror va hammaga ma'qul bo'lgan ilmiy tasavvurlar va tasniflar shu paytgacha mukammal tarkib topgan emasligini ham e'tirof etish lozim. Bunday holatning asosiy sabablaridan biri ta'limga yo'naltirilgan ilmiy bilimlar tizimlari o'rtasidagi qiyinchilik bilan yengib o'tiladigan uzilishlardir. Yana kattaroq sabab esa ta'limiy bilim va amaliy pedagogik faoliyat o'rtasidagi uzilishdir. O'qituvchi innovatsion faoliyatning sub'ekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, qo'llash hamda ommalashtirishda ishtirok etadi. U fandagi bilim, an'analardagi o'zgarishlar mazmunini va mohiyatini tahlil eta bilishi kerak. Innovatsiya – amaliyot va

nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy – madaniy ob'ekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy sub'ektlarning harakat tizimidir. Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondoshuvlardir. Ular tashabbus va yangiliklar asosida tug'ilib, ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo'ladi, shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya – ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondoshuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir. Innovatsion o'zgarishlar asosida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish innovatsion amaliyot va pedagogikani sezilarli darajada boyitadi. Loyihalash tamoyillari asosida innovatsiyalarni shakllantirish va joriy etishning umumlashtirilgan modellari, ularni rivojlantirishning tizimli-mantiqiy mexanizmi, shuningdek innovatsion ta'lim faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar va chora-tadbirlar tizimidan aniq shart-sharoitlarni hisobga olgan holda umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida, shuningdek, ta'limni boshqarish xodimlari foydalanishi mumkin. Innovatsion faoliyat – uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo'lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. O'qituvchi innovatsion faoliyati xususiyatlarini o'rganib chiqqan pedagog olimlar fikrlariga tayangan holda, quyidagilarni innovatsion faoliyatning asosiy belgilari deb hisoblash mumkin:

- Ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- Pedagogic tadqiqot metodlarini egallash;
- Mualliflik kontsepsiyalarini yaratish qobiliyati;
- Tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- O'zidan boshqa tadqiqotchi – pedagoglar tajribalarini qo'llay olish;
- Hamkasblar bilan hamkorlik;
- Fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik;
- Ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- Yangiliklarni izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslashtirib borish.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishni istagan har bir pedagog innovatsion faoliyat bilan shug'ullanishi zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Mirziyoyev Sh. M. — “Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq– farovon hayotning, do’stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. — Xalq so’zi gazetasi 2018 yil 8 dekabr.
2. Шаталов В. Ф. Город в облаках. повесть, эссе, раздумья В. Ф. Шаталов. — Донецк: «Донбасс», 2008. — 381 с.
3. Azizxo‘jaeva N.N. O‘qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. –T.: TDPU, 2000. – 52 b. 8. Goziev Yo.Yo. «Umumiy psixologiya» 1-2tom.Toshkent-2002 y.
4. M Usmonova. [Kichik maktab yoshdagi bolaning motivatsiya sohasi rivojlanishi: Kichik Maktab Yoshdagi Bolaning Motivatsiya Sohasi Rivojlanishi,- Журнал дошкольного образования, 2021](#)
- 5.Usmanova, M. (2020). 6-7-YOSHLI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA TA’LIMYIY MASHG`ULOTLARNING O`RNI. *Мактабгача таълим журнали, 1(1)*. Retrieved from <https://matinfo.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/147>
- 6.Usmanova,M (2021). Bolalarda muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish. *Мактабгача таълим журнали, 3(Preschool education journal)*. Retrieved from <https://matinfo.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/3973>